

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan "BARQARORLIK KURSI" seminar trening fevral oyi

## BAYONNOMASI

O'tkazilgan sana: 18-fevral 2026-yil

O'tkazilgan joy: kata faollar zali

**Seminar mavzusi:** Ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv muhit.

**Qatnashdilar:** Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

### KUN TARTIBI:

1. Ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv muhit tushunchalari haqida ma'lumot berish.
2. Universitetda tenglik, inklyuzivlik va sog'lom muhitni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
3. Talabalar va xodimlarning ijtimoiy barqarorlik tashabbuslaridagi ishtiroki.
4. Savol-javob va muhokama.


### MUHOKAMA:

Seminar davomida ijtimoiy barqarorlik, inklyuziv muhit yaratish, talabalar va xodimlarning teng huquqli ishtiroki masalalari muhokama qilindi. QS Barqarorlik reytingi indikatorlari bo'yicha ijtimoiy faoliyat ma'lumotlarini yig'ish va platformaga kiritish zarurligi ta'kidlandi. Talabalar va xodimlarning inklyuziv va ekologik tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha fikrlar bildirildi. Ijtimoiy barqarorlik — jamiyatda tenglik, adolat va barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. U aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatda tinchlik, hamkorlik va o'zaro hurmatni mustahkamlab, barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Inklyuziv muhit esa har bir inson — jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy holati yoki jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar — teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bunday muhitda nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar va barcha ishtirokchilar uchun qulay sharoit yaratiladi. Inklyuzivlik jamiyatda o'zaro hurmat, hamjihatlik va ijtimoiy faollikni oshirib, barqaror va adolatli rivojlanishga xizmat qiladi.

### QARORLAR:

1. Universitetda barqarorlik va inklyuzivlik bo'yicha seminar-treninglarni davom ettirish.
2. Talabalar va xodimlarning ijtimoiy va ekologik loyihalardagi faol ishtirokini ta'minlash.
3. QS Barqarorlik indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida yig'ib, platformaga kiritish.
4. Seminar materiallari va foto-hisobotlarni arxivlash.



Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna  
Sana: \_\_\_\_\_

Imzo: 